

THE CONTENT OF DEVELOPING DEONTOLOGICAL QUALITIES IN FUTURE TEACHERS IN THE CONTEXT OF DIGITAL TRANSFORMATION

Xolboyev A.

Teacher of the Department of “Pedagogy and Psychology”

Uzbek State University of World Languages

Abstract

Currently, in educational activities, there are increased requirements for teachers to improve their knowledge, that is, to conduct video lectures and lectures on an online platform as a “digital pedagogue”. Future teachers are required to have a high level of foreign language proficiency (CEFR B2 and above) and to demonstrate digital security, media literacy, and deontological qualities inherent in all teachers.

Keywords: “Digital pedagogue”, digital security, media literacy, deontological qualities.

Introduction

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA DEONTOLOGIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI

Xolboyev A.

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

“Pedagogika va psixologiya” kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya

Hozirgi kunda ta’lim faoliyatida pedagoglardan yangi bilimlarni oshirish ya’ni “raqamli pedagog” sifatida video ma’ruzalar, onlayn platformada ma’ruzalar olib borishga qaratilgan talablar kuchaytirilgan. Bo‘lajak o‘qituvchilar chet tilni bilish (CEFR B2 va undan yuqori) darajasi yuqori va raqamli xavfsizlik, media

savodxonlikga ega hamda barcha pedagoglarga xos deontologik sifatlarga ega bo‘lishi namoyon etira olishi talab qilinmoqda.

Kalit so‘zlar: “raqamli pedagog”, raqamli xavfsizlik, media savodxonlikga, deontologik sifatlarga ega bo‘lishi.

Abstract

Currently, in educational activities, there are increased requirements for teachers to improve their knowledge, that is, to conduct video lectures and lectures on an online platform as a “digital pedagogue”. Future teachers are required to have a high level of foreign language proficiency (CEFR B2 and above) and to demonstrate digital security, media literacy, and deontological qualities inherent in all teachers.

Keywords: “digital pedagogue”, digital security, media literacy, deontological qualities.

Аннотация

В настоящее время в образовательной деятельности предъявляются повышенные требования к учителям в плане повышения квалификации, то есть в проведении видеолекций и лекций на онлайн-платформах в качестве «цифрового педагога». От будущих учителей требуется высокий уровень владения иностранным языком (CEFR B2 и выше), а также демонстрация цифровой безопасности, медиаграмотности и деонтологических качеств, присущих всем учителям.

Ключевые слова: «цифровой педагог», цифровая безопасность, медиаграмотность, деонтологические качества.

Zamonaviy oliy ta’limda bo‘lajak o‘qituvchilar innovatsiya yetakchisi bo‘la olishi lozim. Hozirgi kunda ta’lim faoliyatida pedagoglardan yangi bilimlarni oshirish ya’ni “raqamli pedagog” sifatida video ma’ruzalar, onlayn platformada ma’ruzalar olib borishga qaratilgan talablar kuchaytirilgan. Bo‘lajak o‘qituvchilar chet tilni bilish (CEFR B2 va undan yuqori) darajasi yuqori va

raqamli xavfsizlik, media savodxonlikga ega hamda barcha pedagoglarga xos deontologik sifatlarga ega bo'lishi namoyon etira olishi talab qilinmoqda.

Darhaqiqat, bo'lajak o'qituvchilarda deontologik (kasbiy axloqiy) sifatlarni rivojlantirish dunyoning turli mamlakatlarida muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Har bir mamlakatda bu jarayon o'zining milliy ta'lim tizimi, madaniy qadriyatlari va raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasiga qarab shakllanadi.

Yevropa mamlakatlarida ya'ni Finlyandiya, Germaniya, Niderlandiya kabi davlatlarda o'qituvchi kasbiga tayyorlashda axloqiy me'yorlar, raqamli madaniyat, tanqidiy fikrlash alohida modul sifatida o'qitiladi. Deontologik sifatlari o'quvchilarning huquqlarini hurmat qilish, adolatli baholash, shaxsiy ma'lumotlarga ehtiyotkorlik bilan yondashish va akademik halollik kabi sifatlari yuqori baholanadi. O'qituvchilik ta'limi dasturlarida kasbiy etik kodeksi o'rganiladi va amaliyot davomida sinovdan o'tkaziladi.

AQSH va Kanada davlatlarida o'qituvchilarning deontologik sifatlari o'qituvchining mas'uliyati, ishonchliligi, professional chegaralarni saqlashi (masalan, o'quvchi-o'qituvchi munosabatlarida), kibernetika xavfsizlik va raqamli iz qoldirish madaniyati, doimiy kasbiy rivojlanishga sodiqlik kabi sifatlari belgilangan.

Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy davlatlarida esa kasbiy axloqqa madaniy qadriyatlar asosida yondashiladi hurmat, itoatkorlik, jamoaviylik. O'qituvchilar axloqiy namunadorlik timsoli sifatida tarbiyalanadi. Deontologik sifatlari jamoat manfaatini ustun qo'yishi, ota-onalar va jamiyat bilan ochiq, halol muloqot olib borishi, onlayn muhitda o'zini tutish etikasi baholanadi. Kasbiy erkinlik va mustaqil fikrlash bilan birga yuqori darajada axloqiy mas'uliyat ham shakllantiriladi. O'quvchilar salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun xizmat qilish markazlari doim kasbiy bilimlarini raqamli vositalardan axloqiy va maqsadli foydalanishga qaratilgan mashg'ulotlar olib boriladi.

Jahon tajribasida bo'lajak o'qituvchilarning deontologik sifatlari shakllantirib borish asosiy vazifalardan hisoblanadi. O'qituvchilarga axloqiy me'yorlar va kasbiy etikani o'rgatish, raqamli madaniyat va xavfsizlikni ta'limga integratsiya qilish, shaxsiy va professional mas'uliyatni uyg'unlashtirish, madaniyatlararo hurmat, gender tengligi, adolat tamoyillarini e'tiborga olish hamda Oliy ta'lim xodimlarini grantlar jalb qilishi, fanlararo tadqiqotlar olib borishi talab qilinadi. Ta'limda gender tengligi, inkluzivlik va raqamli etikaga katta urg'u beriladi.

Deontologik sifatlari esa inson huquqlarini hurmat qilish, tenglik va bag'rikenglik, tanqidiy fikrlashi bilan ta'lim sifatini ko'tarishdir.

Bugungi kunda Oliy ta'limning maqsad va vazifalari zamon talablariga javob bera oladigan malakali, raqobatbardosh, yuksak bilimli, oliy ta'lim mutaxassisi talablariga o'zi tanlagan yo'nalishi yuzasidan talabga javob bera oladigan respublikaning ilm-fan, madaniyat, iqtisod, ijtimoiy sohalarini rivojlantirishda o'z hissasini qo'shadigan mustaqil fikrlay oladigan, yuksak ma'naviyatga bo'lgan yuqori salohiyatli mutaxassislarni tayyorlashdir.

Raqamli transformatsiya ta'lim sohasini ham tubdan o'zgartirmoqda. Yangi texnologiyalar, raqamlashtirilgan o'quv muhiti va ta'lim resurslari o'qituvchilardan nafaqat texnik ko'nikmalar, balki mukammal axloqiy pozisiya – deontologik sifatlarini ham talab qiladi. Bunda kelajak o'qituvchilar (pedagogik ta'lim olayotgan talabalar) maxsus tayyorgarlikdan o'tishlari, ya'ni pedagogik deontologiyaga oid bilim va ko'nikmalarni shakllantirishlari lozim.

Bugungi kunda o'qituvchining professional faoliyatida axloqiy majburiyatlari, munosabati va mas'uliyatlarni oshirib borishimiz, raqamli transformatsiya sharoitida bo'lajak o'qituvchilarda deontologik sifatlarini rivojlantirishni taqozo qilmoqda.

Bo'lajak o'qituvchilarda axborotni tanlash va yetkazishda etikasi bo'lishi, yangi texnologiyalarni bilishi, axborotni tarqatish va qabul qilish usullarini o'zgartirish ko'nikmalari talab qilinadi. Bunda intellektual mulk huquqi, plagiat, axborot xavfsizligi kabi masalalar muhim ahamiyat kasb etadi. Oliy ta'lim tizimida ham onlayn muloqot madaniyatiga ega o'qituvchilar darhol ko'zga tashlanmoqda. Oliygo'ri yoki maktab platformalaridagi onlayn darslar, chatlar va forumlarda axloqiy normalarga amal qilgan holda ammoviy chiqishlar qilishga to'g'ri kelmoqda. Raqamli ma'lumotlar orqali talabning rivojlanishini kuzatish va uni qo'llab-quvvatlash qobiliyati hamda har xil imkoniyatlarga ega bo'lgan talabalar uchun raqamli muhitda bir xil ta'lim sharoitlarini yaratish lozimdir. Bo'lajak o'qituvchilar interaktiv treninglarni olib borish, mashg'ulotlarda keys-stadi va boshqada texnologiyalarni joriy etish hamda raqamli transformatsiya sharoitida o'qitish jarayonlarini simulyasiya qilish, turli vaziyatlarda to'g'ri pedagogik pozisiyani topishi, kiberxavfsizlik darslarini birgalikda o'rganib borish malakalarini oshirish talab qilinmoqda. Ta'lim muassasalarida tajribali ustozlar ishtirokida raqamli axloqni amaliyotda kuzatish va baholash zarurati oshib bormoqda.



Raqamli transformatsiya nafaqat ta'lim jarayonlarini, balki pedagog shaxsiyati va kasbiy fazilatlarini ham qayta shakllantirmoqda. Shunday ekan, bo'lajak o'qituvchilarning deontologik sifatlarini maqsadli ravishda rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi. Axborot texnologiyalari davrida nafaqat bilim, balki axloqlilik, mas'uliyat va insoniy munosabatlar ham o'qituvchi shaxsiyatining asosiy ko'rsatkichlaridan biriga aylanmoqda.

Ta'limda raqamli transformatsiya bu raqamli texnologiyalar, internet, sun'iy intellekt va axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish orqali ta'lim tizimini sifat jihatidan yangilash jarayonidir. U nafaqat dars berish usullarini, balki ta'lim mazmuni, o'quv muhitini, baholash tizimini va o'qituvchi-talaba o'rtasidagi munosabatlarni ham tubdan o'zgartiradi. Raqamli transformatsiya raqamli texnologiyalar asosida an'anaviy jarayonlarni modernizatsiya qilish, avtomatlashtirish va samaradorligini oshirish demakdir.

Ta'lim sohasida an'anaviy darslarni onlayn formatga o'tkazish, raqamli o'quv materiallari va platforma yaratish, sun'iy intellekt va o'qish tahlili orqali shaxsiylashtirilgan ta'lim, avtomatlashtirilgan baholash tizimlari va elektron jurnallar, masofaviy va gibril ta'lim modellaridan keng foydalanishni o'z ichiga oladi.

Oliy ta'limda Smart sinfxonalar, interaktiv taxtalar, planshetlar, noutbuklar bilan ta'minlash, Wi-Fi va ma'lumot uzatish infratuzilmasini kuchaytirish borgan sari kuchayib bormoqda. O'qituvchilar elektron ta'lim platformalariga kira olishi va undan kerakli ilmiy ma'lumotlarni olishi, ularni amaliyotga joriy etilishiga moslashib bormoqda. O'qituvchilar keyingi bosqichlarda o'zlarining fanlararo integratsiyasini Moodle, Google Classroom, Edmodo, Microsoft Teams, Zoom, Coursera kabi platformalar orqali ta'limni tashkil etishi lozim bo'lmoqda. Bundan tashqari talabalarning ta'lim ehtiyojlariga, o'quvchining qobiliyati, qiziqishi va rivojlanish darajasiga qarab, individual o'qitish strategiyasiga mo'ljallangan fan, o'quv dasturlarini ishlab chiqish zarurati mavjud.

Ta'limda raqamli transformatsiya bu zamon talabi. U nafaqat dars berish usulini, balki pedagogning rolini, o'quvchi ta'lim olish shaklini va ta'lim mazmunini tubdan o'zgartiradi. Muvofiqiyatli raqamli transformatsiya uchun o'qituvchilarni raqamli ko'nikmalar bilan ta'minlash, ta'lim infratuzilmasini yaxshilash va milliy mentalitet va ehtiyojlarga mos raqamli kontent ishlab chiqish lozim.


Raqamli transformatsiya sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning deontologik sifatlarini rivojlantirish zamonaviy texnologiyalar va raqamli vositalar jamiyatda

keng tarqalgan davrda o'qituvchilarning kasbiy axloqiy qadriyatlarini, mas'uliyati va me'yorlarini shakllantirish jarayonidir. Ta'lim sohasida raqamli texnologiyalar keng qo'llanilishi o'qituvchilardan yangi kasbiy ko'nikmalar, axloqiy mas'uliyat va me'yorlarni talab qiladi. O'quv jarayonida axborot resurslari, onlayn platformalar, interaktiv vositalar o'qituvchilarning deontologik majburiyatlarini o'zgartirishi mumkin.

Bizga ma'lumki, deontologiya kasb axloqining qoidalari va me'yorlari tizimi. Raqamli transformatsiya sharoitida o'qituvchilardagi pedagogik sifatlar o'ziga xos ko'rinish oladi (masalan, onlayn muhitda axloqiy me'yorlarga rioya qilish, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish kabi).

Ta'lim dasturlarini raqamli transformatsiyaga moslashtirish: axloqiy masalalar va raqamli etikani o'quv jarayoniga kiritish zamonaviy texnologiyalarni ishlatishda axloqiy qoidalarni amaliy tarzda namoyon qilish, Onlayn muhitda mas'uliyatni oshirish, ijtimoiy tarmoqlarda va ta'lim platformalarida axloq qoidalariga amal qilishni targ'ib qilish, texnologiyalar yordamida o'zini baholash va rivojlantirish, o'qituvchilar uchun raqamli etikani baholash vositalarini joriy etish hamda muammolar va ularni bartaraf etish yo'llarini topish qobiliyatlari shakllanishi zarurdir. Raqamli transformatsiya sharoiti noaniq etik me'yorlarni talab qilishi mumkin, bu esa o'qituvchilar uchun murakkablik tug'diradi.

Tajriba va nazorat guruhlarida qayd etilgan natijalarni yanada aniqroq ifodalash maqsadida diagramma ko'rinishida ifodaladik



3.2.1-rasm. Asoslovchi tajriba-sinov ishlari natijalariga ko'ra tajriba va nazorat guruhlarining qiyosiy natijalari



Asoslovchi tajriba-sinov ishlari davrida har ikki guruhga birlashtirilgan respondentlarning ogʻzaki va yozma savol-javoblari, anketa hamda metodik topshiriqlari boʻyicha natijalari kutilganidek ijobiy xususiyat kasb etmadi. Yuqorida keltiriladigan jadvallar va statistik tahlil natijalari ushbu fikrni tasdiqlashini koʻrishimiz mumkin.

Asoslovchi tajriba-sinov ishlari natijalariga koʻra, tajriba (20 nafar, 14,70 foiz) va nazorat (18 nafar, 14,51 foiz) guruhlarida deontologik sifatleri **qobiliyatlarni rivojlantirishning yuqori** darajasi qayd etildi. Ushbu respondentlar guruhi raqamli savodxonligi va axborot madaniyati, raqamli taʼlim muhitida adolatli, masʼuliyatli, toʻgʻri muloqot qilish olish, onlayn muloqot etikasi suʼniy intellekt video avdieo darlarni samarali tashkil qila olish koʻnikmalariga ega ekanligi bilan ajralib turadilar. Intellektual mulkni hurmat qilishi pedagogik deontologiyadan yuqori darajada xabardorligi, yuksak axloqiy fazilatlarning shakllanganligi, raqamli faoliyatda axloqiy meʼyor va tamoyillarga rioya qilishi, kasbiy faoliyatda rivojlangan axloqiy oʻzini-oʻzi boshqara olishi, kasbiy etika kodeksi va axborot xavfsizligi, shaxsiy maʼlumotlar bilan ishlash raqamli simulyatsiyalar, case-study, forum va vebinarlar orqali muammoli vaziyatlarni hal qilish koʻnikmalari shunigdek ahloqiy shaxs sifatida pedagogik foaliyatda oʻzini namoyon qilishga boʻlgan intilish yuqoriligi bilan tavsiflanadi.

Raqamli transformatsiya jamiyat, taʼlim va kasb-hunar sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish va ular yordamida ish faoliyatini samarali amalga oshirish jarayonidir. Taʼlim sohasida bu jarayon oʻqituvchilarning ish uslubi, kasbiy madaniyati va axloqiy meʼyorlariga ham taʼsir koʻrsatadi. Raqamli muhitda oʻqituvchi oʻz kasbiy axloq qoidalariga rioya qilishi, shaxsiy va oʻquvchilar maʼlumotlarini himoya qilishi, onlayn kommunikatsiyada hurmat va odobni saqlashi lozim. Boʻlajak oʻqituvchilar raqamli transformatsiya sharoitida axborot xavfsizligi qoidalarini bilishi va ularga qatʼiy amal qilishi kerak. Shaxsiy maʼlumotlarni oshkor qilmaslik, oʻquvchilarning onlayn faolligini himoya qilish axloqiy masʼuliyat hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar orqali oʻqituvchilik kasbining obroʻsini saqlash kerak. Oʻqituvchi ijtimoiy tarmoqlarda va boshqa onlayn platformalarda oʻzini namunali tutishi, professional imidjini saqlashi muhim. Oʻqituvchining deontologik sifatleri raqamli maydonda oʻz aksini topishi lozim, masalan, yolgʻon maʼlumot tarqatmaslik, nojoʻya xatti-harakatlardan saqlanish lozim. Raqamli texnologiyalar tez rivojlanayotgan soha boʻlgani uchun oʻqituvchi doimiy ravishda oʻz bilimini yangilashi va axloqiy qoidalarni yangicha

sharoitda tatbiq etishni o'rganishi kerak. Bo'lajak o'qituvchilar interaktiv va masofaviy ta'lim sharoitida mas'uliyatni kuchaytirish talab qilinadi. Onlayn darslarda o'quvchilarning diqqatini saqlash, ularni adolatli baholash, interaktiv metodlardan foydalanishda axloqiy me'yorlarni buzmaslik bo'lajak o'qituvchilar uchun muhim mas'uliyatdir.

Raqamli transformatsiya sharoitida bo'lajak o'qituvchilarda deontologik sifatlarni rivojlantirish bu kasbning zamonaviy talablariga mos, axloqiy mas'uliyatni anglaydigan, raqamli etikani o'zlashtirgan va amalda qo'llay oladigan mutaxassislar tayyorlash jarayonidir. Bu esa ta'lim sifatini oshirish va jamiyatning axloqiy poydevorini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalar hayotning barcha sohalariga, shu jumladan ta'limga tobora ko'proq kirib borayotgan zamonaviy dunyoda o'qituvchining etikasi alohida ahamiyatga ega. O'qituvchi nafaqat o'z sohasining mutaxassisi bo'lishi, balki raqamli muhitdagi faoliyati uchun ham javobgar bo'lishi kerak.

Foydalangan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 5 iyuldagi «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va o'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash» to'g'risidagi № PF-5106-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T.: Tasvir, 2020. 72 b.
3. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: “A.Qodiriy” nomidagi nashriyot, 1993. – 224 b.
4. Avloniy A. Guliston yoxud axloq. Islom odobidan mumtoz namunalar.T., 1993.-120 b.
5. Ananyev B.G. O psixologicheskix aspektax sosializatsii. –Minsk: Izd-vo “Universitetskoye”, 1998.-321 s.
6. Bratus B.S. Psixologiya. Nравstvennost. Kultura. - M.: Rospedagentstvo. 1994. -346 s.
7. Полищук Ю.И. Вопросы психического здоровья и психиатрической помощи на страницах российской прессы // Независимый психiatr. журн. -2001. - N: 2. - S. 23-27.